



"TASDIQLAYMAN"
"Toshshaharnur" DUK
direktori v.b.
Rajabov U.R.

**2024-yil davomida "Toshshaharnur" davlat unitar korxonasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	2024-yilga mo'ljallangan yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Korxona faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens mas'ul xodimi bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilgan. 2024-yil 12-avgustdan boshlab korxona faoliyatida monopoliyaga qarshi tizimini joriy etish va monitoring qilish maqsadida direktorning umumiy masalalari bo'yicha o'rinbosari R.Azizov mas'ul shaxs etib tayinlangan. monopoliyaga qarshi tizimni joriy etish va ishlash tartibini belgilovchi ichki Nizom ishlab chiqilib, belgilangan tartibda 2024 yil 15-avgustda tasdiqlangan.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Korxonada internetga ulanish uchun sharoitlar, sayt va aloqa vositalari tashkil etilgan.
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olingan. davlat xaridlari sub'ektlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda shartnomalar tuzish holatlarining oldini olish maqsadida turli tashkilotlar bilan tuzilgan 562 ta shartnomadan 159 tasi bekor qilingan. Bekor qilinishning asosiy sabablari – shartnomalarda ko'rsatilgan moddiy tovar boylklarni yetkazib berilmagani yoki ularning talabga javob bermasligi bo'lgan. 2024-yil - O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 9-sentyabrda davlat xaridlari sub'ektlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda shartnomalar tuzish holatlari bo'yicha ma'lumotnomasida 2022-2023 yillar hamda 2024-yilning 6 oyi davomida 29 ta shartnoma "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasida nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi talablarga zid ravishda tuzilganligi aniqlangani ko'rsatilgan. Yuqorida ko'rsatilgan aniqlangan qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan vakolatli organlar tomonidan tegishli choralar ko'rilgan
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlangan va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilgan.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Korxona faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linmagan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Korxona faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilgan, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlanmagan.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan va ular amaliyotga tatbiq etilgan.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Korxona xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirish yuzasidan amaliy ko'rgazmali ravishda mas'ul rahbar xodimlar bilan suhbat o'tkazilgan.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Korxona xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazilgan.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar amalga oshirilmagan.

Direktor o'rinbosari

R.M.Azizov